



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2025 yil 18-mart, № 54 (8949)

Seshanba

Saytimizga o'tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



STRATEGIK SHERIKLIK VA KO'P QIRRALI HAMKORLIK YANADA MUSTAHKAMLANADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Amerika Qo'shma Shtatlari Kongressi a'zosi, O'zbekiston bilan hamkorlik bo'yicha parlament kokusi ishtirokchisi Kerol Miller boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



O'zbekiston bilan AQSh o'rtasidagi strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlari yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi. Uchrashuv avvalida parlament a'zosi davlatimiz rahbariga AQSh Prezidenti, Kongress rahbariyati va O'zbekiston bo'yicha kokus a'zolarining salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki tomonlama hamkorlikda yuqori darajaga erishilgan katta mamnuniyat bilan qayd etildi. Faol siyosiy muloqotlar va idoralararo almashinuvlar davom etmoqda. Keyingi yillarda tovar ayirboshlash va investitsiyalar hajmi bir necha barobar oshirib, biznes kooperatsiyasi kuchaymoqda.

Toshkent shahrida Vebster universiteti va Amerika texnologiya universiteti faoliyat ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, transport, bo'xona, migratsiya, madaniyat va boshqa ustuvor yo'nalishlarda o'zaro manfaatli hamkorlik amalga oshirilmoqda.

Kerol Miller yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar strategiyasi, jumladan, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish, demokratik institutlarni, eng avvalo, parlamentni mustahkamlash, gender tenglikni ta'minlash borasidagi ishlar natijalarini yuksak baholadi.

Iqtisodiy va investitsiyaviy loyihalarni, shu jumladan, tog'-kon, sanoat, energetika, qishloq xo'jaligi sohasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlash va ilgari surish maqsadida parlamentlararo hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston hududlarining Amerika shtatlari bilan sheriklik aloqalarini yo'lga qo'yish muhimligi qayd etildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi dolzarb masalalar va Afg'onistondagi vaziyat yuzasidan ham fikr almashildi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

KOMMUNAL VA QISHLOQ XO'JALIGI SOHALARINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN YANGI LOYIHALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 17-mart kuni ichimlik suvi va issiqlik ta'minoti, mahallalar obodligi va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq masalalar bo'yicha videoselektor yig'ilishi o'tkazdi.

Aholining hayot sifatida muhim bo'lgan bunday ishlar qamrovi kengayib bormoqda. Bu yil 1 ming 619 kilometr ichimlik suvi, 521 kilometr oqova suv tarmoqlarini tortish, tizimdagi 162 ta inshootni qurish va rekonstruksiya qilish rejalashtirilgan. Bularning natijasida 715 ming aholiga ilk bor toza ichimlik suvi yetib boradi, 135 ming xonadon oqova tarmog'iga ulanadi, 157 ming iste'molchiga zamonaviy hisoblagich o'rnatiladi.

Ya'qinda davlatimiz rahbarining Fransiya tashrifi doirasida Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ichimlik suvi bo'yicha 340 million yevrolik 3 ta loyiha kelishildi.

Jumladan, Fransiyaning "Suez" kompaniyasi Denov, Sho'rchi, Sariyovo va Qumqo'rg'on'dagi ichimlik suvi ta'minoti xususiy boshqaruvga olyapti. Natijada viloyatda markazlashgan ichimlik suvi qamrovi 90 foizga yetishi kutilmoqda.

Oqova tarmog'i mavjudligi qurilish, sanoat va xizmatlar rivoji uchun muhim omil. Uni kengaytirish uchun byudjetdan har yili trillionlab mablag' sarflanmoqda. Lekin faqat shunga qarab qolmasdan, sohaga xususiy sektorni kengroq jalb qilish zarurligi ko'rsatib o'tildi.

Masalan, mahalliy tadbirkor Osiyo taraqqiyot banki ishtirokida Olmalik, Bekobod, Angren va Chirchiq shaharlarida oqova suv tozalash inshootlarini quryapti. Yana bir tadbirkor Andijondagi ikkita tumanida suv va oqova xizmatlarini xususiy boshqaruvga olish tashabbusi bilan chiqqan.

Shu kabi xususiy sheriklik loyihalari ko'paytirish, yirik korxonalarimizning xalqaro tenderlarda qatnashish imkonini kengaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Xalqaro moliya institutlari ishtirokidagi loyihalarni amalga oshirish jarayonini soddalashtirish bo'yicha qaror qabul qilindi. Endi tenderlarni tezlashtirib, yil yakunigacha 850 million dollarlik ishlar bajarish topshirig'i berildi.

Yana bir muhim vazifa — sohani raqamlashtirish. Buning uchun Osiyo taraqqiyot bankidan 125 million dollar jalb qilinishi belgilangan. Besh yilda yirik suv inshooti va magistrat quvurlarga 4 ming 800 ta "aqil" hisoblagich, 2 ming 800 ta telemetriya tizimi o'rnatish ko'zda tutilgan.

Bu elektrotexnika sanoati uchun katta bozor ekani qayd etilib, hisoblagich ishlab chiqarishni ko'paytirish, ularga xizmat ko'rsatishni bosqichma-bosqich xususiy sektorga o'tkazish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Issiqlik ta'minoti tabiiy gaz eng ko'p sarflanadigan sohalardan biri. Shu bois 11-mart kuni bu sohani tubdan isloh qilish va energiya samaradorligini oshirish bo'yicha Prezident qarori qabul qilindi. Unga muvofiq, "Issiqlik ta'minoti" kompaniyasi tashkil etilib, hududlardagi 23 ta korxonaga o'rnatilgan o'tkazildi. Keyingi besh yilda issiqlik tizimlarini tiklash uchun 19 trillion so'm

yo'naltiriladi. Markazlashgan issiqlik ta'minoti qamrovi 37 foizdan 58 foizga yetadi.

Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligiga ko'p qavatli uylar hamda ijtimoiy muassasalarda energiya samaradorligini oshirish bo'yicha topshiriq berildi. Qayd etilganidek, 9 mingta uy-joy va bino yopiq isitish tizimiga o'tkaziladi. Natijada issiqlik yo'qotilishi 2 barobar, gaz iste'moli 20 foizga kamayadi.

Yig'ilishda bahorgi ekish tadbirlariga ham to'xtalib o'tildi. Hukimliklar zaxirasida turgan yerlarni ajratishni soddalashtirish choralarini belgilandi.

Endi qishloq yerlarini auksionda bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotish bekor qilinadi. Auksionda sotilmagan yerlarning qiymati keyingi savdolarida kuniga 10 foizdan pasaytiriladi. Takroriy auksionda bitta ishtirokchi qatnashsa ham g'olib hisoblanadi. Yerning 10 — 20 foizi chorva uchun ozuqa ekishga chiqariladi.

Hozirda 93 mingdan ziyod fermerlar faoliyatini tadbirkorlik reytingi orqali baholanyapti. Endi bu reyting hisodkorlik, ishchi soni, mahsulot hajmi kabi mezonlar bo'yicha alohida bo'lishi ma'lum qilindi.

Yuqori reytingdagi fermerlarga kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urtalash talabi bekor bo'ladi. Yer solig'i 3 barobar, fermerlar kengashiga to'lanadigan baddal 2 karra kamaytiriladi. Paxta va g'allada me'yordan ko'p hosil olganlarga 25 foizgacha yerida chorva ozuqasi, sabzavot, dukkakli va boshqa ekinlarni almashlab ekishga ruxsat beriladi.

Prezident farmoyishi bilan e'lon qilingan dolzarb bir oylik doirasida mahallalarda olib borilayotgan dehqonchilik va obodonlashtirish ishlari haqida axborot berildi.

Bahorda 125 million tup ko'chat ekilishi mo'ljallangan. Bunda ekin joylarini to'g'ri tanlash, sug'orishni yaxshilash muhim ekani ta'kidlandi. Jumladan, suv ta'minoti og'ir mahallalarda geomembrana qoplamali hovuzlar barpo etiladi.

O'tgan yili tajriba tarzida 208 ta mahallada "mahalla-servis" kompaniyalari tashkil qilinib, aholiga 23 turdagi xizmatlar ko'rsatish yo'lga qo'yilgan edi. Endi bu tizim kengaytirilib, yana mingta shunday kompaniya tuziladi. Xizmatlar turi ham kamida 30 taga yetkaziladi. Xitoy tajribasi asosida 5 ming kishi mahallaga xizmat ko'rsatish bo'yicha o'qitiladi va 15 ming aholining bandligi ta'minlanadi.

Bu yildan 208 ta tuman va shahar obodonlashtirish bo'limlari tarkibida ichki yo'llarni saqlash uchastkalari tashkil qilindi. Ularga qo'shimcha 5 turdagi maxsus texnika sotib olish uchun 700 milliard so'm ajratildi. Mutasaddilarga ichki yo'llarni ta'mirlash, mahallalarda energiya ta'minotini yaxshilash bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda Bosh vazir o'rinbosarlari, vazirlar va hokimlarning axboroti eshittildi.

O'ZA.

Uchrashuv

O'ZARO ALOQALARNI KENGAYTIRISH ISTIQBOLLARI MUHOKAMASI

Kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva Amerika Qo'shma Shtatlari Kongressi Vakillar palatasi a'zosi Kerol Miller xonim bilan uchrashuv o'tkazdi.

Muloqot chog'ida O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, davlat va jamiyat hayotidagi ijobiy o'zgarishlar, shuningdek, O'zbekiston va AQSh o'rtasidagi strategik hamkorlikni yanada rivojlantirish masalalari muhokama qilindi. Uchrashuvda savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish, qishloq xo'jaligi sohasida o'zaro tajriba almashish va investitsiyaviy loyihalarni amalga oshirishning istiqbolli yo'nalishlari ko'rib chiqildi. Shuningdek, energetika sanoati, ta'lim, sog'liqni saqlash, xotin-qizlar huquqlarini ta'minlash va gender tenglik

masalalarida hamkorlikni mustahkamlash yuzasidan fikr almashildi.

Tomonlar davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda parlament diplomatiyasi muhim o'rin tutishini ta'kidlab, do'stlik guruhlarini tashkil etish hamda hududlararo muloqotlarni yo'lga qo'yish masalalarini muhokama qildi. Uchrashuv yakunida parlamentlararo hamkorlikni yanada rivojlantirish hamda ikki tomonlama aloqalarni mustahkamlash bo'yicha kelishuvga erishildi. "Xalq so'zi".

PARLAMENTLARARO MUNOSABATLARNING MUHIM BOSQICHI

Kecha O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov AQSh Kongressi Vakillar palatasi a'zosi Kerol Miller bilan uchrashdi.

Muloqot avvalida mehmonlarga yangi tahrirdagi Konstitutsiya va "O'zbekiston — 2030" strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlar, Qonunchilik palatasining tarkibiy tuzilishi, uning qonun ijodkorligi yo'nalishidagi faoliyati, qo'mitalar va komissiyalarning asosiy vazifalari haqida batafsil ma'lumot berildi. O'z navbatida, mehmon samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarning so'ngi yillarda tobora kengayishi va

mustahkamlanishida, turli sohalardagi serqirra hamkorlikning rivojlanishida kuzatilayotgan barqaror ijobiy tendensiyani mamnuniyat bilan qayd etdi. AQSh parlamenti a'zosi K. Miller O'zbekistonda keyingi yillarda sifat jihatdan yangi bosqichda amalga oshirilayotgan faol islohotlar va o'zgarishlarni yuqori baholadi. Ayniqsa, Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan mintaqaviy hamda xalqaro aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan konstruktiv va ochiq tashqi

siyosat alohida tahsinga sazovorligini bildirdi.

Uchrashuvda ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari xususida so'z borar ekan, parlamentlararo hamkorlikni yanada kengaytirishda deputatlar o'rtasidagi aloqalarni yanada jadallashtirish muhim o'rin tutishi ta'kidlandi.

Tomonlar fan, ta'lim, savdo-iqtisodiy va investitsiya kabi yo'nalishlarda, qonun ijodkorligi sohasida o'zaro tajriba almashinuvini rivojlantirishga kelishib oldi.

Uchrashuv do'stona va konstruktiv ruhda o'tdi.

"Xalq so'zi".

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisi to'g'risida AXBOROT

17-mart kuni Toshkent shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi.

Unda Senat, hukumat a'zolari, vazirlik va idoralarning vakillari, mahalliy Kengashlar deputatlari, Senat huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zolari hamda ommaviy axborot vositalari xodimlari qatnashdi.

Videokonferensaloqa tarzida o'tkazilgan yalpi majlisi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Raisi Tanzila Norboyeva olib bordi.

Yalpi majlis Senatning "YouTube" tarmog'ida sahifasi orqali to'g'ridan-to'g'ri yoritib borildi.

Senatning beshinchi yalpi majlisining birinchi kunida dastlab O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash majlisida belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlardan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati hamda xalq deputatlari mahalliy Kengashlari oldida turgan vazifalar ko'rib chiqildi.

So'nggi yillarda sohaning normativ-huquqiy asoslari shakllantirilganligi, institutsional o'zgarishlar amalga oshirilganligi, korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan qator amaliy choralar ko'rilganligi ta'kidlab o'tildi.

Sohaga oid 10 ga yaqin qonunlar qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi

Prezidentining 10 ta Farmon va qarori, hukumatning 2 ta qarori va 20 dan ortiq idoraviy hujjatlari hamda 2 ta davlat dasturi tasdiqlandi.

Xususan, davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilovchi "Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

"Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun bilan davlat fuqarolik xizmati isloh qilinib, davlat xizmatida korruptsiyaning oldini olishga qaratilgan mexanizmlar joriy etildi.

Shuningdek, "Normativ-huquqiy hujjatlarining va ular loyihalarning korruptsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi qonun qabul qilinib, normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarni korruptsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish tizimi yaratildi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash va uning hududiy kengashlari tashkil etildi.

Milliy kengash tarkibidan davlat organlari va tashkilotlari rahbarlari, fuqarolik jamiyati institutlari vakillarining o'rin olishi orqali barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining sohadagi faoliyatini muvofiqlashtirish imkoniyati yaratildi.

Korruptsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish sohasida davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirish uchun

mas'ul bo'lgan maxsus vakolatli davlat organi — Korruptsiyaga qarshi kurashish agentligi tuzildi.

Korruptsiyaga qarshi kurashish to'g'risida har yilgi Milliy ma'ruzani tayyorlash va uni Oliy Majlis palatalariga kiritish amaliyoti yo'lga qo'yilib, ushbu jarayon Konstitutsiyamizda ham o'z aksini topdi.

Bundan tashqari, 117 ta davlat organi va tashkiloti, shu jumladan, banklarda korruptsiyaga qarshi ichki nazorat (kompleyns nazorat) tuzilmalari faoliyati yo'lga qo'yildi.

Shu bilan birga, ushbu sohada qator kamchiliklar ham mavjudligi qayd etildi.

Qurilishga ruxsat berish, binoni topshirishda yong'in xavfsizligi bo'yicha byurokratiya va qonun buzilishi holatlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, asosan, korruptsiyani aniqlash va jazolash bilan shug'ullanib, korruptsiyaviy omillarning oldini olishga, preventiv choralarini ko'rishga e'tibor qaratilmagan shular jumlasidandir.

Shuningdek, korruptsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olishda davlat organlari va tashkilotlaridagi korruptsiyaga qarshi ichki nazorat (kompleyns nazorat) bo'linmalarining o'rni va mas'uliyati sezilmayapti.



AHOLI IJTIMOY HIMOYASI USTUVORLIGI KAFOLATI

Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda quyidagi palataning navbatdagi majlisi kun tartibiga kiritilishi rejalashtirilayotgan bir qator qonun loyihalari atroficha ko'rib chiqildi.

Fraksiyalar hayoti

Jumladan, Tadbirkorlar va ishlabarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning shu yil 11 — 13-mart kunlari Fransiya Respublikasiga davlat tashrifining ahamiyati muhokama qilindi.

Deputatlar ushbu tashrifning ahamiyati haqida to'xtalib, uning doirasida imzolangan hujjatlar davlatimiz o'rtasidagi aloqalarni yanada bosqichga olib chiqishga, ikki tomonlama munosabatlarni barqaror chuqurlashtirishga xizmat qilishini, har ikki tomonning iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga yangi sur'at bag'ishlashini qayd etdilar.

Yig'ilishda "Aholini ijtimoiy himoya qilish tizimi takomillashtirishini munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi bo'linmalarining muhokama markazida bo'ldi.

U bilan bir qator qonunlarga

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan fuqarolar (oilalar)ning ma'lumotlarini olish va qayta ishlash huquqini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasinging ahamiyati haqida fikr-mulohazalarini bildirar ekan, unda nazarda tutilayotgan ayrim normalar bo'yicha qonun tashabbuskorlarini savollarga tutishdi. Partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, loyihani yanada takomillashtirish, pishiq-puxta holatga keltirish bo'yicha qator takliflar berildi.

Bolalarni zo'rvonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasinging muhokamasi ham qizg'in kechdi. Fraksiya a'zolari ushbu hujjatning mazmun-mohiyati xususida so'z yuritib, u bilan Jinoyat-prosessual kodeksiga voyaga yetmagan guvohlarni so'roq qilish muddatlarini aniqlash bo'yicha o'zgartirishlar kiritilayotganini qayd etdi.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisi to'g'risida

AXBOROT

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi tomonidan sohaga oid xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilmagan, sohani rivojlantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqilmagan.

Sog'liqni saqlash, bandlik, bank sohaslarida korrupsiyaviy holatlar yuqori. Sog'liqni saqlash sohasida 527 ta, bandlik bo'yicha 447 ta, banklarda 434 ta korrupsiyaviy holat qayd etilgan. Byudjetdan eng ko'p mablag' o'ladigan vazirliklardagi korrupsiyaviy omillar aniqlanmagan, o'rganilmagan hamda tahlil qilinmagan.

Tumanlarda, mahallalarda infratuzilmaga ulanish, litsenziya olish, imtiyozli kredit ajratish, ishga qabul qilish, malaka oshirish kabi maishiy korrupsiyaviy holatlar ko'paygan.

Tergovchi, prokuror va sudyalr qo'lidagi ish bo'yicha faqatgina idoralarga taqdimnoma va xususiy ajrim kiritish bilan cheklanmagan. Korrupsiyaga qarshi kurashish hududiy kengashlarining faoliyati talabga javob bermaydi, ular mahallalar bilan o'zaro hamkorlik qilmagan.

Davlat xizmatlari bo'yicha davlat idoralari va aholi o'rtasidagi munosabatlarni baholaydigan tizim yo'lga qo'yilmagan. Prokuror, ichki ishlar va soliq organlari rahbarlarining korrupsiyaning oldini olish borasidagi faoliyati talabga javob bermaydi.

Senاتور Prezident tomonidan qayd etilgan yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan manfaatdor vazirlar va idoralr bilan hamkorlikda quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlashdi.

Xususan, korrupsiyaga qarshi kurashishning qonunchilik asoslarini takomillashtirish, jinoyatchilikning oldini olish bo'yicha hududlardagi ishlar samaradorligini oshirish, shu jumladan, joylardagi maishiy korrupsiyaga barham berish, jinoyat sodir etgan shaxslar bilan individual ishlar tizimini yo'lga qo'yish, aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish, korrupsiyaga nisbatan munosabatni shakllantirish bilan bogliq keng qamrovli chora-tadbirlarni amalga oshirish hamda Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha hududiy kengashlar faoliyatini tubdan yaxshilash lozim.

Muhokama yakunida jinoyatchilikka qarshi kurashish va korrupsiyaning oldini olish borasida amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar yuzasidan Senatning qarori qabul qilindi.

Yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining Suv kodeksini tasdiqlash to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Mamlakatimizda suv resurslaridan samarali foydalanish, suv tejoychi texnologiyalarni joriy etish, sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash bo'yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida o'tgan asrning 90-yillaridagiga nisbatan suv sarfi yiliga 64 milliard metr kubdan hozirgi kunda o'rtacha 51 milliard metr kubgacha kamaygan.

Biroq izchil islohotlar va ro'y bergan tub o'zgarishlar, yangi rivojlanish strategiyasini shakllantirish hamda suv munosabatlarning ijtimoiy-iqtisodiy asoslarining o'zgarishi suvga oid qonunchilikni qayta ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltirmoqda.

Qayd etilganidek, qonun bilan tasdiqlanayotgan Suv kodeksida suv munosabatlari sohasidagi asosiy huquqiy hujjatlar tizimlashtirilgan.

Jumladan, suvga doir munosabatlarni tartibga solish sohasida Vazirlar Mahkamasini, vazirlik va idoralr, mahalliy davlat hokimiyati organlarining vakolatlari, vazifa va funksiyalariga aniqlik kiritilmoqda.

Shuningdek, suv xo'jaligida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini joriy qilish shartlari, suv olish tartibini buzganlik uchun javobgarlik masalalari, suvga doir munosabatlarda xalqaro hamkorlikning asosiy yo'nalishlari belgilab berilmoqda.

Suv kodeksining qabul qilinishi suvdan oqilona foydalanish, suv resurslarini samarali boshqarish va muhofaza qilishni ta'minlaydi. Soha bo'yicha davlat organlarining bir-biri ta'kidlovchi vakolatlari bilan bogliq masalalar hal qilindi. Suv yetkazib beruvchilar va iste'molchilarning mas'uliyati ortadi.

Bundan tashqari, suv xo'jaligini uzoq muddatli



Akmal MUHAMMADOV olgan surat.

rivojlantirishning huquqiy asoslari yaratilib, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish, sohaga investitsiyalarni jalb qilish va texnologik modernizatsiya qilish rag'batlantirildi.

Shu bilan birga, qonun xalqaro suv huquqi normalarni milliy suv qonunchiligiga singdirish hamda O'zbekistonning xalqaro maydondagi ijobiy imini yaxshilashga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shundan so'ng Senatning navbatdagi yalpi majlisida "Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalash to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

So'nggi yillarda mazkur tarmoqda iqtisodiy o'sish, oziq-ovqat xavfsizligi va eksport salohiyatini oshirishda katta ahamiyatga ega.

Shu bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning eng tavakkalchi sohaslaridan biri bo'lib, iqlim o'zgarishi, tabiiy ofatlar, zararkunandalar, bozor konyunkturasidagi o'zgarishlar va boshqa xavf-xatarlar mahsulot yetishtiruvchilar uchun katta moliyaviy yo'qotishlarga olib kelishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar hosiliga zarar yetkazuvchi (tabiiy ofatlar oqibat) hamda nobud qiluvchi (kuchli yomg'ir, do'l, suv toshqini, dovul yoki zararkunandalar) omillar sabab jiddiy iqtisodiy zarar ko'rmog'ida.

Sohada, asosan, kreditni qaytarmaslik xavfini sug'urtalash amaliyoti keng foydalanilayotgan bo'lsa-da, bunday sug'urta faqat imtiyozli kreditlar qaytarilishiga xizmat qilib, yetishtiriladigan hosil sug'urtasiz qolib ketmoqda.

Mazkur qonunda qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalash bilan bogliq barcha masalalar va to'g'ridan-to'g'ri amal qiluvchi normalar qamrab olingan.

Jumladan, ishlab chiqaruvchilarni turli tavakkalchiliklardan himoya qilish va barqaror daromad olishni kafolatlash uchun Qishloq xo'jaligi sug'urtasi jamg'armasi tashkil etilishi ko'zda tutilmoqda.

Qishloq xo'jaligi tavakkalchiliklarini sug'urtalashda davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmi yaratilmoqda. Xususan, sug'urta mukofotining 50 foizi davlat tomonidan qoplab berilishi, sug'urtalangan tabiiy ofatlar va boshqa xatarlardan ko'radigan zararlarni qoplash uchun Qishloq xo'jaligi sug'urtalash jamg'armasining mablag'lari yetarli bo'lmagan taqdirda uning qolgan qismi respublika byudjeti mablag'lari hisobidan qoplanishi nazarda tutilmoqda.

Sug'urtalash jarayonida ishtirok etuvchi subyektlarining huquq va majburiyatlari belgilanmoqda.

Ta'kidlanganidek, qonunning qabul qilinishi qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarning xavf-xatarlar tufayli yetkazilgan zararlarni o'rinni qoplashda huquqiy asos bo'ladi. Bundan tashqari, Qishloq xo'jaligi sug'urtasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi yo'lga qo'yiladi. Tavakkalchiliklarni sug'urtalashda sug'urta munosabatlarni tartibga solish va nazorat qilishning yagona tizimi yaratiladi. Shu tariqa ishlab chiqaruvchilarning iqtisodiy barqarorligi ta'minlanib, turli xavf-xatarlarning moliyaviy ta'sirini kamaytirish imkoni paydo bo'ladi hamda investitsiyaviy jolibadorlik

ortib, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi mustahkamlanadi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatning beshinchi yalpi majlisida "Kreditlarning garov bilan ta'minlangan talablarini qanoatlantirish tizimi yanada takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mazkur qonun bilan kreditlarning garovdagi mulkka nisbatan huquqlari ustuvorligini ta'minlash va garovdagi mol-mulk hisobidan kredit qarzdorlikni undirish jarayonlarini soddalashtirish nazarda tutilmoqda.

Xususan, garovga qo'yilgan mol-mulk egasi jinoyat yoki boshqa huquqbuzarlik sodir etganligi uchun undan mol-mulk olib qo'yilsa, banklarga o'z talablarini ushbu mol-mulk hisobidan ustuvor tarzda qanoatlantirish huquqi berilmoqda.

Qonunda undiruv garovga qo'yilgan mol-mulkka qaratilgan ushbu mol-mulkning kimoshdi savdosidagi boshlang'ich sotish narxi sud qarori bilan belgilanishi nazarda tutilmoqda.

Qonunga ko'ra garovdagi mol-mulk qarzni undirish to'g'risidagi iro hujjatlari bo'yicha sotilmaganida, davlat ijrochisi tomonidan undiruvchiga (bank yoki boshqa qarz beruvchi tashkilot) mol-mulki takroniy auktsion savdolari yoki savdo tashkilotlari tomonidan qayta realizatsiya qilish chog'ida boshlang'ich sotish narxidan 25 foiz kamroq summada o'zida qoldirish taklifi bildirish tartibi belgilanmoqda.

Qonunning qabul qilinishi kreditlarning garovga qo'yilgan mol-mulka nisbatan huquqlari ustuvorligini ta'minlash, garov narasini soddan tashqari tartibda realizatsiya qilish tizimini takomillashtirish, majburiyatlarni garovga qo'yilgan mol-mulk hisobidan undirish jarayonlarini soddalashtirish va kredit tashkilotlarining kredit portfelidagi muammoli aktivlar ulushini kamaytirishga xizmat qiladi.

Muhokamadani so'ng qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi. Shuningdek, yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga zargarlik sanoatini yanada rivojlantirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda zargarlik sanoatini qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqariladigan zargarlik buyumlarining ichki va tashqi bozorlarda raqobatbardoshligini ta'minlash, shuningdek, zargarlik sohasini mahalliy sanoatning asosiy drayverlaridan biriga aylantirish borasida qilingan ishlar natijasida mazkur sohadagi korxonalar soni 3 baravarga ortib, 627 taga yetdi. Hozirda ulardagi ishchi xodimlar soni 3 000 nafarga yaqinni tashkil etmoqda.

Qayd etish lozimki, yurtimizda zargarlik mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport hajmini oshirish uchun katta salohiyat mavjud. Buni o'tgan vaqt davomidagi natijalar orqali ham ko'rishimiz mumkin.

Jumladan, 2024-yilda zargarlik sohasida ishlab chiqarish hajmi 2,5 trillon so'mni tashkil etib, 2023-yildagiga nisbatan 15 foiz o'sgan. Mahsulotlarning eksporti esa 20 foizga ortgan.

Biroq zargarlik buyumlari ishlab

chiqaruvchilarning qimmatbaho metallarga bo'lgan talabini qanoatlantirish, ularning rivojlanishi uchun qulay biznes muhitini yaratish va qonunchilikda mavjud bo'lgan byurokratik to'siqlarni bartaraf etish zaruriyati yuzaga kelmoqda.

Zargarlik sohasida qimmatbaho metallar va toshlar, ulardan yasalgan zargarlik buyumlarining noqonuniy aylanmasi mavjudligi, tadbirkorlik subyektlariga mol-mulk va yer solig'idagi imtiyozlar yetarli emasligi va yana bir qator mavjud muammolar sohadagi salohiyatdan to'laqonli foydalanish imkonini bermayapti.

Ushbu omillar inobatga olingan holda qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga va Soliq kodeksiga, "Litsenziyalash, ruxsat berish va xabardor qilish tartib-taomillari to'g'risida"gi hamda "Qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar to'g'risida"gi qonunlarga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda qimmatbaho metallar va qimmatbaho toshlar muomalasi hamda aylanmasi sohasidagi huquqbuzarlik uchun jarima miqdorlari keskin oshirilmoqda.

Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda qimmatbaho metallar va toshlardan yasalgan zargarlik buyumlarining noqonuniy aylanmasini kamaytirish, shuningdek, qalbaki, asillik darajasiga muvofiq bo'lmagan zargarlik buyumlari sotilishiga barham berish maqsadida ushbu sohadagi huquqbuzarlik sodir etganlik uchun bazzivi hisoblash miqdorining o'ttiz baravaridan ekkiz baravarigacha jarimalar nazarda tutilmoqda.

Soliq kodeksiga kiritilayotgan o'zgartirishlarga asosan "O'zbekzargarsanoati" uyushmasining a'zolari bo'lgan zargarlik buyumlarini ishlab chiqaruvchi yakka tartibdagi tadbirkorlarga nisbatan 2027-yil 1-sentabrga qadar soliq imtiyozlari tatbiq etilmoqda.

Aynan shu muddatga qadar mazkur tadbirkorlarga ishlab chiqarishda foydalaniladigan yer uchastkalari hamda ko'chmas mulk obyektlari mol-mulk soligi va yer solig'ini to'lashdan ozod qilinishi nazarda tutilmoqda.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shu bilan birga, "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilganlik munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga sudlar faoliyatining hamda fuqarolar huquq va erkinliklarining kafolatlarini kuchaytirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonun senatorlar tomonidan muhokama qilindi.

So'nggi yillarda mamlakatimizda huquqiy tizimni tubdan takomillashtirish va sud hokimiyati mustaqilligini ta'minlashga qaratilgan keng ko'lami va muhim ahamiyatga ega bo'lgan islohotlar amalga oshirildi.

Ushbu islohotlar sud ishlarini takomillashtirish, sud qarorlarining shaffofligi va xolisligini oshirish, shuningdek, fuqarolar va tadbirkorlik subyektlarining huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini kuchaytirish kabi keng ko'lami yo'nalishlarni qamrab oladi.

Muhokama qilingan qonun ham ana shu tizimni islohtlarning mantiqiy davomidir.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi hamda "Sudlar to'g'risida"gi Qonunga gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchi o'zining aybsizligini isbotlashi shart emasligi va istalgan vaqtda sukut saqlash huquqidan foydalanishi mumkinligi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, agar shaxsning o'z aybini tan olinganligi ushbu qarshi yagona dalil bo'lsa, u aybdor deb topilishi yoki jazoga tortilishi mumkin emasligi nazarda tutilmoqda. Sud jarayonida ishtirok etayotgan guvoh o'ziga va yaqin qarindoshlariga qarshi ko'rsatma bermaslik huquqi joriy etilmoqda.

Qonun bilan sudyani muayyan ishning muhokamasidan chetlashtirishga yoki ining vakolatlarni to'xtatib turish, boshqa lavozimga o'tkazishga faqat qonunda belgilangan tartibda va asoslarga ko'ra yo'l qo'yilishi joriy qilinmoqda. Shuningdek, sudya vakolatiga va odil sudlovni amalga oshirishga doir faoliyatiga har qanday tarzda aralashishga yo'l qo'yilmasligi hamda ularning hisobdor emasligi belgilanmoqda.

Oliy sudning qonunchilik tashabbusi huquqini amalga oshirish doirasini aniqlashtirilib, faqat

o'z vakolatlari doirasida masalalar kiritishi ko'rsatilmoqda.

Mazkur qonun fuqarolarning huquq va erkinliklarining ishonchli himoyasini ta'minlash, odil sudlovning sifatini yanada oshirishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

Qonunning qabul qilinishi odil sudlovni amalga oshirishda sudyalr tomonidan Konstitutsiya normalarini to'g'ridan-to'g'ri qo'llash hamda Konstitutsiyaviy ustuvorlikni qaror toptirish bo'yicha zarur huquqiy kafolatlar yaratilishi, shaxsning huquq va erkinliklarining sud orqali himoyasi yanada mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan keyin yalpi majlisda "O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risida"gi kodeksiga yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlashga hamda jamoat transportidan foydalanish samaradorligini oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Mamlakatimizda tirbandlik masalasi aholi uchun, ayniqsa, poytaxtimizda eng dolzarb muammoga aylangan. So'nggi 2-3 yilda Toshkent shahrida 7 - 9 ballik tirbandliklar har kuni kuzatilayotgan bo'lsa, ayrim vaqtlarda mazkur holat 10 balligacha ko'tarilmoqda. Bu esa yo'llarda asabiy va ziddiyatli holatlarga, yo'lvochi himada haydovchilarning soatlab vaqt sarflashiga sabab bo'lmoqda.

Xususan, Toshkent shahrida avtobuslar soni so'nggi 2 yilda 2 barabarga oshdi. Ular uchun alohida yo'laklar tashkil etilishi natijasida avtobuslarning qatnovdagi oraliq intervali 2 barabarga qisqardi. Yo'lvochilar soni 2 barobar o'sib, kunlik foydalanuvchilar soni 1 million yo'lvochiga yetdi.

Biroq qonunchilikdagi bo'shliqlar jamoat transportidan foydalanish samaradorligining jiddiy pasayishiga, qatnov muntazamligi va jamoat transportining erkin harakatlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shahar avtomobil yo'llarida jamoat transporti uchun alohida yo'laklar ajratilib, boshqa transport vositalarining harakati taqiqlangan bo'lsa-da, ularning ushbu yo'laklarda harakatlanishi davom etmoqda.

Amaldagi qonunchilikda jamoat transporti uchun alohida ajratilgan yo'laklarda harakatlangan transport vositalari haydovchilari uchun javobgarlik choralarini nazarda tutilgan. Shu bilan birga, haydovchilarning transport vositalarini velosiped yo'laklari, trotuarlar hamda yashil hudud maydonlarida boshqarishi ko'plab kuzatilmoqda va ushbu hududlarda harakat qatnashchilarining xavfsizligini ishonchli ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Yo'llarda harakatlanish xavfsizligini ta'minlashga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi omillardan yana biri noqonuniy ravishda sun'iy to'siqlar o'rnatish, yo'lno'isib qo'yish holatidir.

Fuqarolar o'z yashash hududlaridagi ko'chalarda noqonuniy ravishda sun'iy to'siqlar o'rnatishi, yo'lno'isib qo'yish orqali harakatlanishni cheklagan holda aholiga shoshilinch xizmat ko'rsatuvchi hamda maxsus transport vositalari harakatiga to'siqinlik qilmoqda.

Bu boradagi muammolarni hal etish maqsadida ishlab chiqilgan mazkur qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksga yangi 128⁷-modda kiritilib, jamoat transporti uchun alohida ajratilgan yo'laklarda harakatlanish qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Jumladan, yo'nalishi transport vositalari uchun alohida ajratilgan tasmali bor yo'ldan transport vositalarining harakatlanishi - bazzaviy hisoblash miqdorining bir baravari, xuddi shunday huquqbuzarlik ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin bir yil davomida takroran sodir etilisa - bazzaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida jarima solishga sabab bo'lishi belgilanmoqda.

Shu bilan birga, qonun bilan Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 128-moddasi nomanishi va birinchi qismi dispozitsiyasi yangi tahrirda bayon etilmoqda.

Endilikda haydovchilarning transport vositalarini trotuarlardan, piyodalr va velosiped yo'lakalardan, yashil maydonlardan yurgizishi,

yo'l belgilari va yo'l harakatining boshqa qoidalari talablariga rioya etmaganligi uchun javobgarlik belgilanmoqda.

Senاتورlar ta'kidlaganidek, qonunning qabul qilinishi yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashga, yo'l-transport hodisalarining oldini olishga, yo'llarda jamoat transporti harakatlanishi uchun qo'shimcha qulayliklar yaratilishiga xizmat qiladi.

Muhokamadani so'ng qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Senatning yalpi majlisida "Jinoyat ishini yuritish chog'ida qamoqqa saqlash to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga qamoqqa olinganlarga nisbatan qiynoqqa solish hollarining oldini olishga qaratilgan qo'shimcha kiritish haqida"gi qonun ko'rib chiqildi.

Majlisda keyingi yillarda mamlakatimizda fuqarolar huquq va erkinliklari kafolatlarini yanada kuchaytirish, jumladan, qiynoqqa solish va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki qadr-qimmatni kamsituvchi muomala hamda jazo turlarini qo'llash holatlariga mutlaqo yo'l qo'yilmasligi maqsadida keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotgani ta'kidlandi.

Shuningdek, hech kim qiynoqqa solinishi, zo'ravonlikka, boshqa shafqatsiz, g'ayriinsoniy yoki inson qadr-qimmatini kamsituvchi muomalaga yoxud jazoga duchor etilishi mumkin emasligi qayd etildi.

Muhokama qilingan mazkur qonun ham ushbu islohotlarning mantiqiy davomi bo'lib, unda qamoqqa olinganlar tergov hibsonasiga joylashtirilishidan oldin o'sha yerning o'zida majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi nazarda tutilmoqda.

Qonunning hayotga tatbiq etilishi fuqarolarning odil sudlovga erishish darajasini yanada oshirishni, ularning buzilgan huquq va erkinliklari, shuningdek, qonuniy manfaatlari ishonchli himoya qilinishini ta'minlaydi.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shundan keyin "Qonunlar loyihalari O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga kiritish va ko'rib chiqish tartibi takomillashtirish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun muhokama qilindi.

Qonun ijodkorligi faoliyatining sifati yangi qonunlarning mamlakatimiz Bosh qomusiga, milliy qonunchilikka, xalqaro huquqning umumiy t'rof etilish prinsiplari va normalriga, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga muvofiqligini ta'minlovchi tartib-taomillar va mexanizmlar samaradorligiga qo'rihatdan bog'liqdir.

Ayniqsa, qonun loyihalari ishlab chiqish va qabul qilishda aholi va keng jamoatchilik bildirgan fikrlari va pozitsiyalarini o'rganish hamda ularni inobatga olish jamiyat va davlat hayotiga oid strategik qarorlar qabul qilishda o'z muhim ahamiyati kasb etadi.

Bu borada muhokamadagi qonun bilan qonun loyihalari parlamentga kiritishda qonun loyihalasini va xalqaro shartnoma loyihalasining (matnining) o'tkazilgan huquqiy ekspertizasi natijalarini, shuningdek, qonun loyihalasining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi va u bo'yicha o'tkazilgan jamoatchilik muhokamasini natijalarini taqdim qilish masalalari aks etilirmoqda.

Bundan tashqari, qonun loyihalasini kiritgan qonunchilik tashabbusi huquqi subyekti o'zi kiritgan qonun loyihalasini Qonunchilik palatasi tomonidan ikkinchi o'qishda qabul qilinganiga qadar chaqirib olish to'g'risidagi norma mustahkamlanmoqda.

Senاتورlar mazkur qonunning hayotga tatbiq etilishi qonunchilik tashabbusi huquqiga ega bo'lgan subyektlarning qonun ijodkorligi sohasidagi faoliyati sifatini oshirish, qonunlarning ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishdagi rolini mustahkamlash, xalqchil hamda to'g'ridan-to'g'ri ishlaydigan qonunlar qabul qilinishiga xizmat qilishini ta'kidladilar.

Muhokama yakunida qonun senatorlar tomonidan ma'qullandi.

Shu bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining beshinchi yalpi majlisining birinchi ish kuni yakunlandi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining Axborot xizmati.

BARCHASI INSON MANFAATLARI UCHUN

Kecha Oliy Majlis Senatining beshinchi yalpi majlisi o'z ishini boshladi. Uning kun tartibidan mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydigan, rivojlantirishning asosini belgilab beradigan bir qator qonunlar muhokamasiga va boshqa masalalar o'rin olgan. Senاتورlar muhokamasiga qadar ushbu qonunlarning har biri parlament yuqori palatasi qo'mitalarida, shuningdek, joylardagi mahalliy Kengashlar deputatlari bilan hamkorlikda tahliliy-tanqidiy asosda ko'rib chiqilgan. Quyida ularning ayrimlari haqida senatorlarning muholazalari bilan tanishasiz.

Intervyu

Erkinligi cheklangan shaxslarning manfaatlarini inobatga olindi

Abdulkhamid ESHMURATOV, Oliy Majlis Senatining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish qo'mitasi raisi:

– Tahsilarga ko'ra, 2024-yilda Ombudsmanga huquq-tartibot organlari tomonidan tezkor-qidiruv faoliyati va huquqbuzarliklarning oldini olishga 1 131 ta murojaatning eng ko'pi ichki ishlar (74,3 foiz) hamda prokuratura (16,4 foiz) organlari xodimlarining xatti-harakatlaridan noroziligi yuzasidan bo'lgan.

Shuningdek, harakatlanish erkinligi cheklangan shaxslar saqlanadigan joylarda yo'lib turgan shaxslarga nisbatan ruhiy, psixologik, jismoniy yoki boshqacha tarzda bosim o'tkazilganligi haqida 191 ta shikoyat tushgan. Mazkur shikoyatlarining 16 tasi bo'yicha jinoyat ishi qo'zg'atishni rad etish to'g'risidagi qarorlar tegishli prokurorlar tomonidan bekor qilingan.

O'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijasida 13 ta shikoyat yuzasidan 15 nafar xodimga intizomiy jazo choralarini qo'llanilgan va 3 ta shikoyat yuzasidan jinoyat ishi qo'zg'atilgan.

Bunday holatlar ehtiyot chorasi sifatida qamoqqa olish

tarzidagi chora qo'llanilgan shaxslarning qiynoqqa solinishi holatlarini aniqlash va uning oldini olish maqsadida ushbu ehtiyot chorasini qo'llash chog'ida gumon

Oliy Majlis Senatida



Diplomatik korpus vakillari hisoboti

Oliy Majlis Senatining kengaytirilgan majlisida

O'zbekiston Respublikasining Koreya Respublikasi, Xitoy Xalq Respublikasi, Polsha hamda Latviya Respublikalaridagi diplomatik vakolatxonalar rahbarlarining hisobotlari eshitildi.

Majlisda senatorlar, Tashqi ishlar vazirligi hamda munitsipal vazirlik va idoralar rahbarlari, shuningdek, xalq deputatlari mahalliy Kengashlari doimiy komissiyalari a'zolari, jamoat tashkilotlari va OAV vakillari qatnashdi.

Hisobotlarda keltirilishicha, o'tgan davr tomonidan ushbu davlatlardagi elchixonalar tomonidan muayyan ishlar amalga oshirildi. Jumladan, bir qator investitsiya loyihalari asosida xorij sarmoyalari jalb qilindi – 2024-yilda mamlakatimizga Xitoydan 10,1 mlrd., Janubiy Koreyadan 352 mln., Polshadan 45 mln. va Latviyadan 22,3 mln. AQSh dollari miqdorida sarmoyalar kiritildi.

Buning natijasida Andijon, Jizzax, Xorazm, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida xitoylik hamkorlar bilan sanoat zonalarini loyihalari hayotga tatbiq qilindi. Andijon va Farg'ona viloyatlarida qiymati 288 mln. AQSh dollariga teng har bir 150 MVt quvvatdagi energiya saqlash tizimlarini o'rnatish kabi yirik loyihalari ishga tushirildi.

Latviyaning "VAO" kompaniyasi tomonidan Navoiy viloyatida fosforit qazib olish bo'yicha qiymati 30 mln. dollarlik sarmoyaviy loyiha amalga oshirildi.

Shuningdek, Koreya xalqaro hamkorlik agentligi (KOICA) bilan 115,6 mln. dollarlik 23 ta loyiha amaliyotga kiritildi. 2025-yilda 44,6 mln. AQSh dollariga teng 5 ta loyiha boshlanishi rejalashtirildi.

Bundan tashqari, mehnat migratsiyasi yo'nalishida qulay shart-sharoitlar yaratilayotgani hisobiga bugungi kunda Janubiy Koreyada jami 40 mingga yaqin, Polshada 25 mingdan ortiq O'zbekiston fuqarolari ishga joylashtirildi. Bu borada Latviyaning Ish beruvchilar konfederatsiyasi rahbariyati va uning tarkibiga kiruvchi 20 dan ziyod ish beruvchilari ishtirokida "Mehnat forumi" tashkil etilgan.

Ushbu mamlakatlardan O'zbekistonga kelayotgan sayyohlar soni ham yildan-yilga oshib bormoqda. Xususan, 2024-yilda Xitoydan 77 ming, Janubiy Koreyadan 42 ming, Polshadan 14 ming va Latviyadan 3,5 ming sayyoh tashrif buyurgan.

Yig'ilishda erishilgan muvaffaqiyatlar bilan birga, ayrim kamchiliklar ham tilga olindi. Xususan, mazkur diplomatik vakolatxonalar rahbarlari faoliyatidagi kamchiliklar, jumladan, qonunchilikni takomillashtirish, istiqbolli loyihalarni tayyorlash, eksport takliflarini yaratish hamda xorijda respublikaning iqtisodiy manfaatlarini targ'ib qilishdagi tizim muammolari ko'rsatib o'tildi.

Majlis so'ngida senatorlar tomonidan diplomatik vakolatxonalar rahbarlariga tavsiyalar va faoliyat natijadorligini oshirish bo'yicha aniq vazifalar belgilab berildi.

"Xalq so'zi".

Elchi bilan muloqot

Oliy Majlis Senatida Xalqaro munosabatlar, tashqi iqtisodiy aloqalar, xorijiy investitsiyalar va turizm masalalari qo'mitasi raisi o'rinbosari O. Mamatkarimov Belarus Respublikasining O'zbekistondagi elchisi A. Ogorodnikov bilan uchrashdi.

Muloqot chog'ida ikki davlat o'rtasidagi savdo-iqtisodiy, madaniy-gumanitar va turizm sohalardagi hamkorlik muhokama qilindi. Ikki mamlakat o'rtasidagi yillik savdo aylanmasi 600 mln. AQSh dollaridan oshgani ta'kidlandi.

Belarus elchisi Minskda o'tkazilgan birinchi Belarus – O'zbekiston turistik forumi haqida ma'lumot berib, joriy yilda Toshkentda ikkinchi forum o'tkazilishi rejalashtirilganini qayd etdi. Shuningdek, shu yilning 20-21-avgust kunlari Vitebsk shahrida uchinchi Belarus – O'zbekiston ayollar forumi bo'lib o'tishi ma'lum qilindi.

Uchrashuvda 5 – 9-aprel kunlari Toshkentda Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley assambleyasi o'tkazilishi va unda 190 ga yaqin davlatlardan 2 mingga yaqin parlament a'zolari ishtirok etishi aytilib o'tildi. Belarus delegatsiyasi mazkur tadbirda yuqori darajada qatnashish istagini bildirdi.

"Xalq so'zi".

AHOLI IJTIMOVIY HIMOYASI USTUVORLIGI KAFOLATI



Deputatlar fikricha, mazkur qonun loyihasining qabul qilinishi bolalar huquqlari kafolatlarini kuchaytirish, ularning erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoyalashga xizmat qiladi.

Savol-javoblardan so'ng har ikkala qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida bolalarni zo'ronlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi muhokama etildi.

Ushbu qonun loyihasi bilan Jinoyat va Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodekslarga bolalarni jinsiy zo'ronliklardan himoyalash, bolalar tasvirlangan pornografik mahsulotlarni saqlaganlik uchun javobgarlikni belgilashni nazarda tutuvchi o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Munozaralar davomida deputatlar qonun loyihasining mazmun-mohiyatiga alohida o'talib, uni ishlab chiqishda xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilgani bilan qiziqdi. Loyihadagi ayrim normalar bo'yicha aniqlashuvchi savollar berildi.

Muhokamadan so'ng ushbu qonun loyihasi qo'llab-quvvatlandi.

Deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlangan navbatdagi hujjat – "O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi bo'ldi.

Fraksiya a'zosi Ruslan Jumamatovning aytishicha, soliq munosabatlardagi elektron hujjatlarda imzo sifatida hujjati imzolagan shaxsning roziligini ifodalaydigan hamda uni identifikatsiya qilish imkonini beradigan elektron tasdiqlashning boshqa usullaridan foydalanish imkoniyatlari

kengaytirilmoqda.

Deputatlar qonun loyihasi soliq to'lovchilarning huquqlarini ta'minlashga xizmat qilishini, uni ikkinchi o'qishga tayyorlash davomida deputatlar tomonidan qator takliflar e'tiborga olinganini hisobga olgan holda loyihani qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab 11 – 13-mart kunlari Fransiya Respublikasi Prezidenti Emmanuel Makronning taklifiga binoan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning ushbu davlatga tashrifning ahamiyati haqida atroflicha so'z yuritildi.

Shuningdek, yig'ilishda Ma'muriy

xususiy ayblov institutini joriy etish nazarda tutilmoqda. Bunda ayrim toifadagi ishlar bo'yicha ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarini yuritish faqat jabrlanuvchining arizasiga asosan boshlanishi belgilanmoqda.

Yig'ilishda loyihani ishlab chiqish jarayonida xorijiy davlatlar tajribasi o'rganilgani ta'kidlanib, bu bo'yicha aniq misollar keltirildi.

Fraksiya a'zolari qonun loyihasi yuzasidan fikr-mulohazalarini bildirib, taklif va tavsiyalarini ilgari surdi. Xususan, loyihaning ijtimoiy ahamiyati, aholi manfaatlariga muvofiqligi, iqtisodiy va huquqiy asoslari atroflicha tahlil qilindi.



Qayd etilganidek, ushbu qonun loyihasi jabrlanuvchining huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish kafolatlarini yanada kuchaytirish, uning shaxsiy hayotiga asossiz aralashuvning oldini olishga xizmat qiladi.

Qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida dastlab "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlarining nogironligi bor shaxslarga ijtimoiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq faoliyati, o'zaro hamkorlik

masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

Ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan markazlarda nogironligi bo'lgan shaxslarga xizmat ko'rsatish borasidagi ishlar va rejalar haqida batafsil axborot berildi.

Fraksiya a'zosi Qizigul Qosimova "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari partiyasi elektorati manfaatlarini himoyasini kuchaytirish yo'lidagi islohot bo'lganini ta'kidlab, nogironligi bo'lgan shaxslarga olinadigan doridarmon vositalarining tendariga qo'yilishida ayrim kamchiliklar kuzatilayotgani yuzasidan fikrlarini bildirdi.

Fraksiya a'zosi Irina Tokareva Toshkent shahri misolida "ijtimoiy karta"larni olish, foydalanish bo'yicha targ'ibot-tashviqot ishlari yetarli darajada emalgini qayd etdi. Mutasaddilar ushbu masalalar bo'yicha aniq ma'lumotlar yetkazilishini ma'lum qildi.

O'zXDP fraksiyasi rahbari Ulug'bek Inoyatov markazlar faoliyatining samaradorligini oshirish uchun doimiy muloqot zarurligini, partiya va Ijtimoiy himoya milliy agentligi o'rtasida hamkorlik memorandumini imzolash rejalashtirilganini, shuningdek, deputatlar va agentlik xodimlari birgalikda o'rganishlar tashkil etishi kerakligini alohida ta'kidladi.

Yig'ilishda, shuningdek, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining takomillashtirilishi munosabati bilan ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risidagi qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Fraksiya a'zosi Imomnazar Tursunov aholiga ijtimoiy yordam ko'rsatishda shaxslarning (oilalari) iqtisodiy holatini aniqlashda muammolar mavjudligi, xususan, ijtimoiy yordam yoki xizmat olish uchun murojaat qilgan shaxsning



(oilalari) tijorat banklaridagi omonatlari, pul o'tkazmalari bo'yicha (mablag' qabul qilish yoki jo'natish) ma'lumotlari va hisob raqamlaridagi qoldiq mablag'larini o'rganish ehtiyoji yuzaga kelayotganini ta'kidladi.

Mutasaddilar ushbu masalalar yechimi nazarda tutilayotgani, "ijtimoiy karta" tizimini yo'lga qo'yishga doir yangicha yondashuvlarga o'tilayotganini ta'kidlashdi. Qizg'in muhokamadan so'ng qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida aholini ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirishga qaratilgan qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Unga ko'ra bir qator qonunlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi ijtimoiy himoya milliy agentligi tomonidan fuqarolar (oilalari)ning ma'lumotlarini olish va qayta ishlash huquqini nazarda tutuvchi o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilmoqda.

Shuningdek, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlari tomonidan fuqarolarning ijtimoiy yordam va xizmatlardan foydalanish, ijtimoiy kartani rasmiylashtirish to'g'risidagi

arizalaridagi imzolarni notarial shahodatlash talab etilmasligi belgilanyapti.

Bundan tashqari, "Inson" ijtimoiy xizmatlar markazlariga shaxslarga ijtimoiy kartani rasmiylashtirish (amal qilish muddatini uzaytirish, almashtirish, tugatish)da tegishli ma'lumotlar, shu jumladan, bank siriga oid ma'lumotlarni olish huquqi berilmoqda.

Yig'ilishda qonun loyihasidagi normalar fraksiya a'zolarining qizg'in munozaralariga sabab bo'ldi. Undagi moddalarni takomillashtirish bo'yicha qator takliflar berildi.

Fraksiya a'zosi Navro'zbek Yusupov qonun loyihasining qabul qilinishi ehtiyojmand aholining ijtimoiy-iqtisodiy holatini har tomonlama baholash va bu orqali davlat tomonidan ko'rsatiladigan ijtimoiy yordam va xizmatlarning manzilligini ta'minlashga yo'l ochishini qayd etdi.

Qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

Yig'ilishlarda fraksiyalar faoliyatiga oid boshqa masalalar ham ko'rib chiqildi va tegishli qarorlar qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

REAL VAQT REJIMIDAGI MONITORING TIZIMI O'RGANILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Byudjet va iqtisodiy masalalar qo'mitasi Hisob palatasi bilan hamkorlikda davlatimiz rahbari raisligida o'tkazilgan Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengash yig'ilishida belgilangan ustuvor vazifalarni ta'minlash maqsadida korruptsiya holatlarning oldini olishga qaratilgan real vaqt rejimidagi monitoring tizimini joyiga chiqib o'rganish bo'yicha tadbir tashkil etildi.



Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Unda Hisob palatasi tomonidan uyushtirilgan real vaqt rejimidagi monitoring tizimi bo'yicha mamlakatimizda davlat moliyaviy resurslarining samarali boshqarilishi, byudjet mablag'laridan maqsadli va oqilona foydalanilishi ustidan davlat moliyaviy nazorati, shuningdek, qonunchilik hujjatlarining ijrosi ko'rib chiqildi.

Hisob palatasida masofaviy nazorat markazi faoliyati 3 ta yo'nalishda, jumladan, palataning ichki va tashqi faoliyati nazorati, vazirlik va idoralarning axborot tizimlari hamda ma'lumotlar bazalaridan foydalanish asosida amalga oshirilayotganiga oid batafsil ma'lumot berildi.

Shuningdek, risk-tahlillarni vazirlik va idoralar tomonidan o'rganish uchun "Masofaviy audit" avtomatlashtirilgan axborot tizimi joriy qilingani deputatlarga tushuntirildi. Ular mazkur tizimda byudjetdan eng ko'p mablag' oluvchi 12 ta vazirlik bo'yicha 28 ta risk-tahlil mexanizmi va 447 ta

modul orqali amalga oshirilayotgan nazorat tadbirlari haqida ham kengroq ma'lumotlarga ega bo'ldi.

Tadbir davomida byudjet buyurtmachilarining qonunga zid bo'lgan to'lovlarini onlayn o'tatish moduli ishga tushirilgani ham deputatlar e'tiborida bo'ldi. Masofaviy audit tizimi faqat 2024-yilda 3,7 trln. so'm byudjetga qo'shimcha tushumlarni ta'minlagani, vazirlik va idoralarning 9,2 trln. so'mlik samarasiz xarajatlari maqbulashtirilgani, 2,3 trln. so'mlik moliyaviy kamchiliklarning oldi olingani aytilib o'tildi. Davlat xaridlariga oid 4,5 trln. so'mlik kamchiliklar bartaraf etilgani xalq vakillari tomonidan ijobiy baholandi.

Deputatlar masofaviy nazorat markazida qator vazirlik va idoralarning 234 ta turdagi ma'lumotlar bazalarini integratsiya qilinishi hamda katta hajmdagi ma'lumotlar bazasi orqali onlayn rejimda byudjet mablag'larini sarfining qonuniyligi, maqsadlilik va natijadorligini nazorat

qilish tizimi yo'lga qo'yilganiga oid savollarga javob oldi.

Munozaralar chog'ida qo'mita a'zolari sohani rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalarni samarali amalga oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarini berdi. Xususan, masofadan turib kamchiliklarning barvaqt oldini olish tizimining qamrovini kengaytirish, davlat ulushi mavjud korxonalarining moliyaviy faoliyatini doimiy monitoring qilib borish hamda byudjetga qo'shimcha daromad manbalarini aniqlash va moliyaviy xavf-xatarlarning barvaqt oldini olish tadbirlarini doimiy tarzda o'tkazishga doir fikrlar bildirildi.

Yakunda Hisob palatasi bilan hududlarda Davlat byudjeti mablag'larining maqsadsiz ishlalishi oqibatida kelib chiqishi mumkin orqali onlayn rejimda byudjet mablag'larini sarfining qonuniyligi, maqsadlilik va natijadorligini nazorat

EZGU QADRIYATLAR, MEHNAT VA BUNYODKORLIK IFODASI

Navro'z – ezgulik, mehr-oqibat, mehnat va bunyodkorlik ayyomi sifatida har birimizning hayotimizda beqiyos o'ringa ega. Zotan, qutlug' kun ona zamin va tabiatni asrab-avaylash tamoyillariga uyg'un bo'lib, ayyom arafasida keksalar holidan xabar olinadi, ehtiyojmand aholi qo'llab-quvvatlanadi, ularga yanada e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatiladi, shahar va qishloqlarimiz, mahallalarimiz obod qilinadi. Ezgulik bayrami ona zaminga mehr, tinchlik, mehnat, do'stlik va hamjihatlik kabi umuminsoniy g'oyalarni tarannum etishi bilan ham nihoyatda ahamiyatlidir.



Fikr

Davlatimiz rahbarining yaqinda imzolagan "2025-yilgi Navro'z umumxalq bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish to'g'risida"gi qarorida A'rof-muhiti asrash va "yashil" iqtisodiyot yilida nishonlanadigan bu yilgi Navro'z shodiyonlari ham ana shunday ezgu qadriyatlar asosida yangicha ruh va mazmun bilan o'tkazilishi belgilandi.

Ushbu ayyomni yangi O'zbekistonning bugungi salohiyati va nufuziga har tomonlama munosib tarzda nishonlash maqsadida muhim chora-tadbirlar ko'zda tutildi. Jumladan, "Yashil makon" umummilliy loyihasida belgilangan tadbirlarni amalga oshirish, bayram arafasida barcha hudud – ko'cha, mahalla, tuman va shaharlarda obodonlashtirish va ko'kalzorlashtirish aksiyalarini, umumxalq hashtlarini o'tkazishga alohida e'tibor qaratiladi.

Bu bejiz emas. Chunki bugun nafaqat O'zbekiston, balki dunyodagi ko'plab mamlakatlar ilqim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol his qilayotgani, havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'l-lanish, qazilma yoqilg'nlarni behisob ishlalish global ishlaga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga olib kelmoqda, atrof-muhit va aholi sog'lig'iga katta zarar yetkazmoqda. Ularni yengib o'tish uchun har gal Navro'z ayyomi arafasida ushbu yo'nalishda yanada keng ko'lami ishlar amalga oshirilayotir. Jumladan, Prezidentimiz tashabbusi bilan bundan to'rt yil avval boshlangan "Yashil makon" umummilliy loyihasi chinakam xalq harakatiga aylandi.

Bahor va kuzda daraxt ko'chatlari ekish an'anasi jonlanib, loyihaga ko'ra har yili 200 million tup daraxt

va buta ko'chatlari ekilmoqda hamda bu tadbirlar aholi o'rtasida atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatni yondashuvni shakllantirishga xizmat qilaypti.

Raqamlarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, so'nggi yillarda mamlakatimiz bo'yicha jami 700 mln. tupdan ortiq, 2024-yilning o'zida esa jami 300 mln. tupdan ziyod ko'chat va butalar ekildi. Orolbo'yida "yashil qoplama" 2 mln. gektardan oshdi.

Bundan tashqari, hududlarda "yashil bog'lar" 134 taga yetkazildi, shu bilan birgalikda, yirik sanoat korxonalari va chiqindi poligonlari atrofiga ham daraxtlar ekilib, "yashil belbog"lar tashkil qilinmoqda.

Shu kabi amalga oshirilgan ishlar natijasida respublikadagi yirik tuman va shaharlarning yashillik darajasi 15,3 foizga yetgani, albatta, e'tiborga molik.

Aytish kerakki, bugun mamlakatimiz chinakam bunyodkorlik, yashillik o'lkasiga aylanmoqda. Yangilanish va yasharish bayrami arafasida ezgu an'analar yanada keng quloqchoy zoyapti. Yurtdoshlarimiz o'z uy, ko'chasi va mahallasini obod etishga astoydil harakat qilib, o'tkaziladigan hashtlar davomida irrigatsiya tarmoqlarini tozalash, yerni ekishga tayyorlash, dov-daraxtlarni butash, uch avlod vakillari – bobo, ota va nabiralari ishtirokida nihol ekish tadbirlarini tashkil etish, oziq-ovqat xavfsizligi, ekologik toza mahsulotlar yetishtirish, sog'lom turmush tarzi kabi masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ayni vaqtda "Mening bog'im" loyihasi doirasida g'olib, deb topilgan 215 ta loyiha bo'yicha bosqichma-bosqich ekish ishlari boshlandi. Aholi va jamoatchilik

tashabbusi bilan "yashil bog'lar" va "yashil jamoat parklari"ni tashkil qilish bo'yicha qiymati 250 mln. so'mdan oshmagan tashabbuslar moliyalashtirilishi ko'zda tutilgan.

O'z navbatida, "Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasidagi ishlar parlamentning doimiy e'tiborida. Sohadagi qonunchilikni yanada takomillashtirishga ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, so'nggi bir yil davomida bu bo'yicha 7 ta qonun qabul qilindi. Shundan 3 ta qonun loyihasi bevosita quyi palata deputatlari tomonidan ishlab chiqilib, qonunchilik tashabbusi huquqi asosida kiritilganini alohida qayd etish joiz. Masalan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda daraxtlar va butalarning qiymatbaho navlarini kesishga olib keladigan loyiha hujjatlarini ishlab chiqqanlik uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi. Shuningdek, daraxtlarni qonunga xilof ravishda kesganlik, kundakov qilganlik yoki shikastlantirganlik uchun ma'muriy jazo choralarini kuchaytirildi.

"Osimlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi Qonunda esa davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxtlar qiymatbaho navlarini qonunga xilof ravishda kesgan yoki yo'q qilgan shaxslarga kompensatsiyaviy daraxt va buta ko'chatlarini ekish hamda ularni uch yil davomida parvarishlash majburiyatini belgilandi.

Albatta, bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar izchil davom ettiriladi. Joylarda targ'ibot-tashviqot ishlari kuchaytirilib, bilan birga, amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlar ustidan samarali parlament va jamoatchilik nazoratini ro'yogba chiqarishda, shubhasiz, barchamiz, ayniqsa, deputatlar korpusi vakillari yanada faollik ko'rsatadi.

Hilola YUSUPOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

MAQSADIMIZ — TA'LIM SIFATI VA MAZMUNINI OSHIRISH

Mamlakatimizda barcha sohalar kabi ta'limni rivojlantirish jarayonida ham xalqaro hamkorlik masalasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu jihatdan, Prezidentimizning Fransiyaga amalga oshirgan davlat tashrifi doirasida Parij shahrida o'tkazilgan "Ilim-fan va ta'lim: O'zbekiston — Fransiya ko'prigi" mavzuidagi ilmiy-amaliy konferensiyasi ikki mamlakat o'rtasidagi ta'lim, ilmiy tadqiqot hamda madaniyat sohalaridagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan muhim bir voqe'lik bo'ldi.

Nuqtai nazar

Tadbirda ta'lim sohasida yangi imkoniyatlarni yaratish, birgalikdagi dasturlar hamda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti ham Fransiyaning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan bir qator muhim shartnomalar imzoladi. Bular nafaqat ikki mamlakat o'rtasidagi ilmiy aloqalarni mustahkamlash, balki o'zaro malaka oshirish, tajriba almashish hamda o'qituvchilar, talabalar almashinuvi ko'lamini kengaytirish maqsadlarini ko'zda tutadi.



akademik hamkorlik to'g'risidagi memorandumga binoan talabalar, professor-o'qituvchilar almashinuvi yo'lga qo'yish, ilmiy tadqiqotlar olib borish hamda ta'lim dasturlarini ishlab chiqish rejalashtirilgan.

Fransiyaning Xalqaro birlamchi va ta'lim assotsiatsiyasi (XBTA) bilan ham anglashuv memorandumini imzoladi. Muloqot chog'ida tomonlar madaniy va ilmiy almashinuvlar ko'lamini kengaytirish, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalar va ilmiy yutuqlar borasida samarali faoliyat olib borilmoqda. Bugungi kunda ta'lim muassasimizda yuqori malakali va tajribali professor-o'qituvchilar jamoasi talabalar nafaqat ta'lim o'rganish, balki Fransiya madaniyati, adabiyoti va ilim-fani bilan tanishish imkoniyatini ham

taqdim etayotir. Natijada talabalar fransuz tilini mukammal o'rganish bilan birga, Fransiyaning yetakchi universitetlarida ta'lim olish hamda ilmiy izlanishlar olib borish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Biz yosh olim hamda o'qituvchilar uchun yangi ilmiy uqurlar yaratishda davom etamiz, albatta.

Shu o'rinda hamkorlikdagi yana bir yangi loyiha haqida to'xtalajak. 2025/2026 o'quv yilidan boshlab O'zbekiston — Fransiya universitetida "Qayta tiklanadigan energiya", "Transportda logistika va intellektual tizimlar" hamda "Lingvistik: fransuz tili chet tili sifatida" mutaxassisliklari bo'yicha magistratura dasturlari yo'lga qo'yiladi. Ushbu loyiha Puatye, Lion 2, Rennes va Le Xavre Normandiya universitetlari bilan birgalikda amalga oshirilishi, mamlakatimiz yoshlari uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

Har safar ta'lim o'rganish masalasida gap ketssa, Gyotening "Inson nechta til bilsa, u shuncha odamdird", degan gapini yodga tushadi. Gyote haq, chunki xorijiy tili bilish har bir inson uchun yangi miqyoslar eshigini ochadi. Shu ma'noda, O'zbekiston davlat jahon tillari universitetida fransuz tili 1949-yildan buyon o'qitib kelindi. Hozirgi kunda 46 nafar professor-o'qituvchi 2,5 mingdan ziyod talabalar fransuz tilidan saboq berib kelayotgan bo'lsa, ularning 2 nafari Fransiyadagi taklif etilgan mutaxassislardir.

Asosiysi, Fransiya oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorligimiz natijasi o'laroq kelajakda yurtimiz umumta'lim maktablarida ham fransuz tilini o'rgatish imkoniyatlarini kengaytirish ko'zda tutilgan. Maqsadimiz yoshlariga xorijiy tillarni mukammal o'rgatib, bu yo'lida zarur sharoitlarni yaratish, yurtimiz ta'lim tizimini, xususan, O'zDJTUni dunyo bo'yicha kuchli oliy ta'lim muassasalaridan biriga aylantirishdan iborat.

Ilhomjon TO'XTASIMOV,
O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti rektori.

Asar qo'lyozmalari katalogi yaratiladi

Imom Buxoriyning "Sahih Buxoriy" asari islom ilm-fanida beqiyos ahamiyatga ega bo'lib, uning nodir qo'lyozmalari dunyoning turli kutubxona va qo'lyozma fondlarida saqlanmoqda. Ayni paytda O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazi tashabbusi bilan jahon fondlarida mavjud bo'lgan ushbu qo'lyozmalarning yagona katalogini yaratish ustida ish olib borilmoqda.

Tashabbus

Loyiha doirasida qo'lyozmalarning elektron va faksimile nusxalari tayyorlanishi ham rejalashtirilgan. Bu imkoniyat orqali tadqiqotchilar, olimlar va keng jamoatchilik "Sahih Buxoriy" asarining turli davr va hududlarda ko'chirilgan nusxalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Katalog va elektron baza O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi, Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, Hadis ilmi maktabi, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi va Tashqi ishlar vazirligi hamkorligida shakllantirilishi rejalashtirilgan.

"Xalq so'zi".

IMOM MOTURIDIYNING SHONLI MEROSI HAMISHA BARHAYOT

Prezidentimizning 2025-yil 14-martdagi "Imom Moturidiy tavalludining 1155-yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ma'naviy-ma'rifiy hayotimizda tom ma'noda tarixiy voqe'lik bo'ldi. Ushbu muhim hujjat buyuk vatandoshimiz, islomiy ilmlar rivojiga ulkan hissa qo'shgan benazir alloma, kalom ilmining sultoni Imom Abu Mansur Moturidiyning ibratli hayot yo'li va boy ilmiy-ma'naviy merosini har tomonlama chuqur o'rganishni rag'batlantirish, moturidiylik ta'limotiga xos bag'rikenglik, mo'tadilik tamoyillarini xalqimiz va jahon jamoatchiligi o'rtasida keng targ'ib qilish, yoshlarni Vatanga muhabbat, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalashda g'oyat ulkan ahamiyat kasb etadi.

Aks sado

Imom Moturidiy haqida so'z borganda, dastlab u zotning "hidoyatga boshlovchi imom" rutbasini yodga keladi. Dunyo musulmonlarining aksariyati asarlarini hujjat deb qabul qiladigan, aqidasi tayanib deb biladigan alloma boshqa yuksak unvonlar bilan ham sharaflangan. "Hidoyat bayrog'i", "Musulmonlar aqidasi isloh etuvchi", "Ahli sunna peshvosi" shular jumlasidan.

Imom Moturidiy islom olamining e'tiborli va e'zozli allomalari safida doim katta hurmat bilan tilga olinishi bejiz emas, albatta. Hidoyatga boshlovchi imom islom tarixining o'ta tahlilini davrida yuzaga kelgan ko'plab buzg'unchi oqimlarga mardonavor qarshi kurashgan, ularning har biriga asosli raddiyalar berishga jur'at va shijoat topa olgan. Aqida — kalom ilmiy asos solib, ahli sunnani eng mustahkam poydevor uzra jipslashtirishga bor kuch-g'ayrati, ilmi va salohiyatini yo'naltira bilgan. Shu bois ham, Imom Moturidiy ta'limotini ahlul sunna val jamoa aqidasi asl o'zagi ekanini barcha zamonda ulamolarda birdek e'tirof etadi.

Benazir olim yashagan davri tasavvur qilishning o'zi juda og'ir. Turli firqlar o'z g'oyalarni ilgari surib, odamlarni chalg'itir, ularning mafkuraviy bahslari ko'plab noxushliklarga sabab bo'lar edi. Imom Moturidiy har bir adashgan oqimning botil ekanini peshma-pesh raddiyalar bilan asoslay borib, pirovardida ularni "ochiq jang maydoni"da butunlay mag'lub qilishdek ulkan jasuratchi bilan musulmonlar aqidasi isloh etuvchi bo'ldi. Aqida ilmining ham o'z davri, ham kelajak avlod uchun o'lmas ilmiy poydevorini bunyod qildi. Uning asarlari asrlarga tatiydigan manba va ikkilanmay aytilish mumkinli, manguiliklar ichra mardonavor qad ko'tarib turadigan istehkomdir.

Bu fikrni tasdiqlash uchun Imom Moturidiyning "Ta'vilot al-Qur'on" tafsiri nazar solinishning o'zi kifoyaga. Alloma Qur'onni tafsir qilgan ekan, o'rni kelganda, o'z davridagi adashgan oqimlarning g'oya va qarashlarini ham keltirib, ularga naqliy va aqliy dalillar bilan javob beradi. Ularning qayerda qay yo'sin adashganini, xatosi nima bilan iborat ekanini ko'rsatadi. Shu bilan birga, g'oyo uzoq kelajakka ko'z tikib, o'zidan keyin ro'y berajak voqealarni ko'rgandek, "agar bizga falon-falon deb savol berishsa, u holda bunday deymiz..." deb, hali o'rtaga chiqmagan,

bahs maydoniga tashlanmagan masalalarni ham keltiradi va ularning yechimini isbotlaydi.

Imom Moturidiyning daholigi shundaki, u shunchaki tafsir bilan cheklanib qolmagan. Soddaroq aytadigan bo'lsak, "Ta'vilot al-Qur'on"ning dohiyona asar ekaniga oddiy misollardan biri shuki, muallif o'zining so'z va fikrlari to'g'riligiga, avvalo, Qur'onning o'zidan dalil keltiradi. Bunday asosni esa, tabiiyki, hech qanaqasiga inkor yo'rad etib bo'lmaydi. So'ngra ishonchli hadislari, mujahtidlarning so'zlaridan misollar keltirib, dalillarini yanada quvvatlaydi.

Barchamizga yaxshi ma'lumki, "Ta'vilot al-Qur'on"ning 30-juzi Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazida ilk marta o'zbek tiliga o'g'irilib, 2021-yilda nashrdan chiqarilib va keng jamoatchilikka taqdim qilindi. Endilikda Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi bu estafetani jo'shqin davom ettirmoqda. Bu ishlar xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida misli ko'rilmagan voqealardir. Negaki, hali Imom Moturidiy asarlari ona tilimizga o'g'irilmagan edi.

Islom ilmlarining ustunlari bo'lgan yetuk allomalarning aksariyati biz yashab turgan mana shu zamindan yetishib chiqqan bo'lsa-da, o'zimiz turli sabablarga ko'ra ularning merosidan bebahra qolib kelganimiz va endi-endi ulami qaytadan tanib, kashf qilib, o'rganayotganimiz inkor etib bo'lmas haqiqat. To'g'ri, bugun Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy kabi nomlarni eshitmagan ham yurtimiz yo'q hisobi. Lekin afsus, ularning ko'pchiligi bu ulug' zotlar nima sababdan butun islom olamida e'zozlanishi borasida aniq ma'lumotga ega emas. Biz buyuk ajdodlarimiz bilan faxrlanamiz, ammo aksariyatimiz bu iftixor manbalari haqida g'oyali gap ayta olishga qodir emasmiz. Shu choqqacha ular haqida bevosita biz, vorislar emas, balki xorijliklar ko'proq bilim va ma'lumotga ega bo'lib keldi.

Shu bois yangi O'zbekistonda Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlari, Hadis ilmi maktabi, O'zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi ta'sis qilindi. Ularning bosh maqsadi ajdodlar merosini

tiklash, o'rganish va targ'ib etishdan iborat. Bunda mo'tabar asarlarni tarjima qilib, xalqimizga taqdim etishga alohida e'tibor berilmoqda. Imom Buxoriyning shoh asari o'zbek tiliga o'g'irildi. "Sunani Termiziy", "Sunani Dorimiy", Abdulloh ibn Muborak va Abd ibn Humayd Keshiyning "Musnad"lari kabi eng ishonchli hadis to'plamlari ham o'zbek tilida xalqimiz

tanlov o'tkazish, g'oliblar ishtirokida O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy uchrashuv va seminar-treninglar tashkil etish ham ko'zda tutilmoqda. Bu tadbirlar nufuzli anjumaning uzviy davomi bo'lib, u yaratadigan xalqaro hamkorlik maydonini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Albatta, esdalik sovg'alarini muomalaga chiqarish, pochta markalari, taqvimlar, buyuk mutafakkirning hayoti va ilmiy merosini yoritib beradigan boshqa ko'rgazmali axborot vositalari turkumini yaratish, allomaning serqirra hayot yo'li va ilmiy merosining bugungi kundagi ahamiyatini ochib beradigan badiiy-publististik film suratga olish kabi tadbirlar keng jamoatchilik, ayniqsa, yoshlar orasida Imom Moturidiy va moturidiylikni o'rganishga qiziqishni yanada oshiradi.

Yana bir voqea — Samarqand viloyatida Imom Moturidiy va moturidiylik ta'limoti yo'nalishida faoliyat olib borgan allomalarning hayoti, ilmiy va ijodiy merosiga bag'ishlangan asarlarning nodir qo'lyozma va nashr nusxalari, kitoblari ko'rgazmasini tashkil etish ko'zda tutilmoqda. Bu allomaning hayoti va ilmiy merosini o'rganishga ishtiyokmandlar safini yanada kengaytirib, tadqiqotchilarimiz uchun o'ziga xos ilmiy chashma bo'lib xizmat qiladi. Qarorning "moturidiylik ta'limotiga mansub allomalarning ilmiy merosi va noyob qo'lyozma asarlarini o'rganish bo'yicha ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladigan ilmiy tadqiqot ishlariga davlat buyurtmasini belgilangan tartibda shakllantirib borish" to'g'risidagi bandi ham shunga qaratilgan.

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga may va oktabr oylarida Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetida "Moturidiylik ta'limoti va hozirgi zamon" mavzuidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiyasini hamda ilmiy maqolalar tanlovi o'tkazish topshiriyapti. Bu ham islom tinchlikparvarlik va ezgulik dini borasidagi qarashlarni keng targ'ib etib, yot g'oya va mafkuralarga qarshi immunitetni shakllantirish va uni kuchaytirish orqali yurtimizda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Imom-xatiblar va diniy ta'lim muassasalari talabalari o'rtasida tashkil etiladigan "Moturidiylik ta'limoti bilimdoni" tanlovi, shuningdek, butun mamlakat bo'yab o'tkaziladigan Imom Moturidiyning ilmiy merosiga bag'ishlangan davra subhatalari ham shu maqsadga qaratilgan. Imom Moturidiy tavalludining yubileyini nishonlash O'zbekiston va dunyo musulmonlarini, ta'bir joiz bo'lsa, turli buzg'unchi kuchlarga qarshi yanada birlashtiradi.

Shovosil ZIYODOV,
Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi direktori.

REKLAMA

«O'ZSANOATQURILISHBANK» ATB AKSIYADORLARINING NAVBATDAN TASHQARI UMUMIY YIG'ILISHINI (MASOFADAN) O'TKAZISH TO'G'RSIDA XABARNOMA

Hurmatli aksiyadorlik tijorat banki aksiyadorlari!

«O'zsanoatqurilishbank» ATB Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 3-uy manzili bo'yicha joylashgan (korporativ veb-sayt: www.sqb.uz, e-mail: info@sqb.uz). Sizga 2025-yil 10-aprel kuni Toshkent shahri vaqti bilan soat 11-00 da masofadan turib elektron ovoz berish xizmati — <http://evote.uz/> orqali bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi bo'lib o'tishini ma'lum qiladi.



YIG'ILISH KUN TARTIBI:

1. 2023-yil 30-noyabrda bank aksiyadorlari navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 03/2023-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» ATBning 2024 — 2026-yillarda rivojlanish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlariga kiritilayotgan o'zgartirishlarni tasdiqlash;

2. «O'zsanoatqurilishbank» ATB boshqaruvi to'g'risida Nizomni yangi tahrirda tasdiqlash va 2019-yil 28-iyundagi bank aksiyadorlari yillik umumiy yig'ilishining 01/2019-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» ATB boshqaruvi to'g'risida Nizomni bekor qilish to'g'risida;

3. «O'zsanoatqurilishbank» ATB Kengashi

a'zolariga mukofot va kompensatsiya to'lash to'g'risidagi Nizomni yangi tahrirda tasdiqlash va 2023-yil 27-iyundagi bank aksiyadorlari yillik umumiy yig'ilishining 01/2023-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» ATB Kengashi a'zolariga mukofot va kompensatsiya to'lash to'g'risidagi Nizomni bekor qilish to'g'risida;

4. KPI ko'rsatkichlaridan kelib chiqib «O'zsanoatqurilishbank» ATBning boshqaruv raisi va boshqaruv raisi o'rinbosarlariga belgilangan yil yakuni bo'yicha ish haqi va mukofot miqdorini belgilash;

5. 2024-yil 20-martdagi bank aksiyadorlari navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining 02/2024-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» ATB tizimida qarzdorlik evaziga bank balansiga mol-mulkni qabul qilish hamda ularni sotish

tartibi to'g'risida Nizomga kiritiladigan o'zgartirishlarni tasdiqlash;

6. 2024-yil 28-iyundagi bank aksiyadorlari yillik umumiy yig'ilishining 03/2024-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zsanoatqurilishbank» ATB tashkiliy tuzilmasiga kiritilayotgan o'zgartirishlarni tasdiqlash;

7. Bankning «Ko'zda tutilmagan holatlar» hisobvaraqlarida qayd etilgan kundan boshlab 5 yildan o'tgan muammoli qarzdorliklarni hisobdan chiqarish to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2015-yil 14-iyuldagi 2696-sonli Nizomiga asosan);

8. Bank Kengashining 3 nafar a'zoning vakolatlarini muddatidan avval tugatish to'g'risida;

9. Bank Kengashida bo'sh bo'lgan o'rinlarga yangi a'zolarini saylash to'g'risida;

■ Aksiyadorlarni navbatdan tashqari umumiy

yig'ilishning o'tkazilishi haqida xabardor qilish uchun reyestri shakllantirish sanasi: 2025-yil 18-mart.

■ Aksiyadorlar navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar reyestri tuziladigan sana: 2025-yil 7-aprel.

■ Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig'ilishiga oid hujjatlar bilan bankning www.sqb.uz korporativ veb-sayti orqali tanishish yoki info@sqb.uz elektron manzili orqali so'rov yuborishingiz mumkin.

Yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish internet tizimi orqali elektron ovoz berish xizmati (<http://evote.uz/>)dan foydalanish holda 2025-yil 10-aprel kuni Toshkent shahri vaqti bilan soat 10:00 da boshlanib, 11:00 da to'xtatiladi.

O'zbekiston davlat yosh tomoshabinlar teatrida 27-mart — Xalqaro teatr kuni munosabati bilan «Ochiq eshiklar kuni» aksiyasi o'tkaziladi.

Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G-242. 15 407 nusxada bosildi. Hajmi — 2 ta boq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida teriladi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Yashovchi muharrir R. Bobojonov.
Musahhih S. Islomov.

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 23.42 Topshirildi — 00.10 1 2 3 4 5 6